

The digital certainly increases students' interest in learning and motivation to acquire new knowledge. Independent learning of a foreign language and its practical application is possible thanks to the use of digital technologies. The use of digital technology makes it possible to learn a foreign language independently and practically.

A number of requirements must be observed. There are a number of requirements to fulfil. A properly planned lesson with the use of digital technologies is aimed at cognitive activity, development of communicative interest, promotes activation and expansion of opportunities for independent work on mastering and practical application of a foreign language.

In conclusion, we would like to note that training with the help of digital technologies opens new opportunities for the teacher and students. Consequently, the competence of a teacher in the field of digital technologies becomes one of the most important competences of a modern specialist in the field of education. of a modern specialist in the sphere of education. At the same time, the evolution of digital technologies technology is not so much in the growth of software, but in the methodologically correct choice of content, as well as in its competent use.

References:

1. Аксёнова Н. И. Метапредметное содержание образовательных стандартов // Педагогика: традиции и инновации : сб. науч. работ. Челябинск : Два комсомольца, 2011. С. 104–107.
2. Бовтенко М. А. Компьютерная лингводидактика : учебное пособие. М. : Флинта : Наука, 2005. 216 с.
3. Глазунова О. С. Метапредметный подход. Что это? // Учительская газета. 2011. № 9 [Электронный ресурс]. Режим доступа : www.ug.ru/article/64
4. Полат Е. С. Интернет на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. 2001. № 2–3. С. 44–47.
5. Сысоев П. В., Евстигнеев М. Н. Использование современных учебных Интернет-ресурсов в обучении иностранному языку и культуре // Язык и культура. 2008. № С. 100–110.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TO‘G‘RI YOZISHGA DOIR O‘QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Subxonova Sanobar Abduhalim qizi

**O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi**

Annotatsiya: To‘g‘ri yozish – imlo muammosi hozirgi kunda jamiyat a‘zolarining savodxon qilib tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada ham bugungi kunda jamiyatni savodxon qilib shakillantirishda eng avvalo, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqda o‘z fikrini to‘g‘ri va ravon qilib ifoda eta olishlari uchun ularga turli metod va vositalar orqali to‘g‘ri

yoʻzish- orfografik malakalarini rivojlantirish lozimligi eng asosiy masala ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: imlo, toʻgʻri yoʻzish, orfografiya, oʻquv topshiriqlari, jamiyat savodxonligi, yozma nutq, mashqlar tizimi.

IMPROVING THE METHODOLOGICAL PROVISION OF TRAINING TASKS ON CORRECT WRITING IN PRIMARY CLASSES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: The problem of correct writing and spelling occupies an important place in the education of society members. In this article, today, in order to make the society literate, first of all, in order for elementary school students to be able to express their thoughts correctly and fluently in oral and written speech, they should be taught through various methods and tools. It is thought that the most important issue is the need to develop writing-orthographic skills.

Key words: spelling, correct writing, orthography, educational tasks, social literacy, written speech, exercise system.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ТРЕНИРОВОЧНЫХ ЗАДАЧ ПО ПРАВИЛЬНОМУ ПИСЬМУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: Проблема правильного письма и орфографии занимает важное место в воспитании членов общества. В данной статье сегодня для того, чтобы сделать общество грамотным, прежде всего для того, чтобы ученики начальной школы могли правильно и бегло выражать свои мысли в устной и письменной речи, их следует обучать с помощью различных методов и средств. Считается, что наиболее важным вопросом является необходимость развития письменно-орфографических навыков.

Ключевые слова: орфография, правильное письмо, орфография, учебные задачи, социальная грамотность, письменная речь, система упражнений.

Toʻgʻri yoʻzish – imloviy savodxonlik har bir davrda ham jamiyat va tilning rivoji uchun juda katta oʻringa ega boʻlgan omil boʻlib kelgan. Chunonchi, biz hayotimizning har bir jabhasini yozma va ogʻzaki nutqsiz tassavur eta olmaymiz. Ana shu nutqning benuqson va kamchiliklardan xoli boʻlmogʻi uchun esa ijtimoiy hayotda har bir shaxsning oʻrni mavjuddir. Bugungi kunda atrofimizda uchrab turgan bir qancha yozma nutqda ifoda etilgan reklama, eʻlon, xabar hattoki, ommaviy axborot vositalarida ham tez-tez uchrab turadigan imloviy xatoliklar kishi tabini xira qiladi. Bunga sabab esa shu nutq egalarining imloviy savodxonliklarining yaxshi shakillanmaganligida hamda imloviy hushyorlik darajasi pastligidadir.

Muhtaram Prizidentimiz Sh.M. Mirziyoyev eʻtirof etib oʻtganlaridek: «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi boʻlgan insonlar etib voyaga yetkazish, taʻlim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, oʻquv

dasturlari, metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazzmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur». [6]

Demak, jamiyatning savodxon bo'lib yetishmog'i uchun, avvalo, bizdan qilinadigan talab bu – o'sib kelayotgan yosh avlodni boshlang'ich sinflardan o'z nutqni va fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon ifoda etishi uchun yetarli bilim va ko'nikmalarni hosil qilmog'imiz zarurdir.

Boshlang'ich sinflarda to'g'ri yozish – imloga doir dars soatlari ko'p qisimni tashkil etmaganligi sababli o'qituvchi ona tili darslarida o'quvchilar bilan turli jaryon va metodik materiallar yordamida shug'illanmog'i lozimdir. Birinchi galda o'quvchilarning imloviy hushyorligini oshirishi kerak hisoblanadi.

Pedagogika fanlari nomzodi Yunusov Qobiljon Abzalxonovich ham "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish" nomli dissertatsiya ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarning orfografik hushyorligini shakllantirishdagi psixologik xususiyatlarni o'rganib chiqib olingan natijalar xulosasida orfografik hushyorlik farazini ilgari suradi: "Orfografiya o'qitishda lingvistik va psixologik asoslarda belgilangan muayyan mashqlar tizimini amalda qo'llash natijasida o'quvchilarning yozma bog'lanishli nutqida orfografik hushyorlik barqarorlashib boradi". [5;3]

Bundan kelib chiqadiki, o'quchi yozma nutqdan foydalanar ekan u har bir so'z va iboraning imloviy jihatdan to'g'ri yozishga bor diqqatini qaratishi lozim hisoblanadi. Nafaqat dars jarayonida ko'proq nazorat diktantlari yozish orqali esa biz o'quvchining orfografik hushyorligini faollashtirishga erishishimiz mumkin hisoblanadi. Diktant tahlilida esa o'quvchi xato yozgan so'z va birikmalarini ma'nosi va nutqda qo'llanilishini yana bir bor izohlar orqali o'rganib ushbu xatoni qayta takrorlamaslikka harakat qiladi. Ko'chirma diktant turida esa, o'quvchi matn tarkibidagi aynan xato yozilgan so'zlarni topib ularni imloviy jihatdan to'g'rilab yozish orqali o'zida paydo qilgan orfografik hushyorlikni yanada rivojlantirish hamda sinovdan o'tkazishda qo'llay oladi. Buning natijasida esa boshlang'ich sinf o'quvchisida anchagina orfografik hushyorlik ko'nikmasi rivojlanadi.

Shuningdek, G'.X. Yaxshiboyevning "Boshlang'ich sinflarda orfografiyani axborot texnologiyalari yordamida adaptiv o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari" nomli monografiyasida orqali ham hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini axborot texnologiyalari darslari kompyuterda turli xil qiziqarli topshiriqlar berish orqali ham ularning orfografik savodxonligini oshirish mumkinligi haqida bir qancha fikr va mulohazalar keltirib o'tiladi: "Kompyuterli adaptiv o'qitish texnologiyasining mohiyati quyidagicha: o'quvchilarning talab qilinadigan orfografik kompetentligi va o'rgatilganligi darajasiga erishish uchun o'quv materiali mazmunini yiriklashtirilgan strukturalash, unga adekvat, o'quvchilarning to'la qisqartirilgan yoki chuqurlashtirilgan o'qish variantlarini mustaqil tanlashi va o'rganishga yo'naltirilgan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini tanlash amalga oshiriladi". [4;36] Bunda dars jarayonida matn tarkibidagi turli harflar tushirib qoldirilib, o'quvchilar turli topshiriqlarni bajarish orqali imloviy savodxonliklarini tekshirib ko'radilar hamda xato va kamchiliklarini esa tuzilgan

dasturning ogohlantirishi yordamida to'g'rilaydilar. Buning natijasida esa o'quvchilar ham kompyuter savodxonligini, ham orfografik savodxonligini oshirib boradilar. Ushbu dasturiy ta'minotni qo'llash orqali ham boshlang'ich sinflarda orfografik savodxonlikni mashq va topshiriqlarni bajargan holda o'quvchilarda yozma savodxonlik adaptiv o'rgana boshlaydilar.

Shunindek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy xatoliklarga yo'l qo'yishiga yana bir sabab bu – ularning shevaga xos so'zlarni yozma nutqda qo'llashidir. Bu kamchilikni oldini olish uchun esa, birinchi navbatda o'qituvchi shevaga xos gapirmasligi lozimdir. Chunki, ko'pchilik o'quvchilar mahaliy sheva tasirida fonetik, orfoepik hamda orfografik xatoliklarga yo'l qo'yishadi. Dars jarayonida esa buni bartaraf etish uchun o'quvchilarga ko'proq kitob mutolaasini tavsiya etish foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki, badiiy asarlar adabiy tilda yozilganligi sababli o'quvchida so'zning to'g'ri yozilishiga ko'z xotirasi orqali ko'nikma hosil bo'ladi. Bunda o'quvchiga turli metodlar va pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish mumkin hisoblanadi.

Bunda matn tarkibida shevaga xos so'zlarni va adabiy tildagi juftini bir necha gaplarda keltirib o'tish orqali o'quvchiga gaplar tarkibidagi shevaga xos (xoto yozolgan) so'zlarni adabiy shakliga (to'g'risiga) almashtirib yozish orqali ham o'quvchida to'g'ri yozish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin hisoblanadi. Masalan: Bugun biz sinfdoshlarimiz bilan sovat uchda kutubxonaga borishga kelishdik.

Yuqorida keltirilgan misolda sovat so'zi shevaga xos bo'lgan so'z hisoblanib, o'quvchi matn tarkibidan topib, u kabi so'zlarni topib ularni adabiy tildagi orfografik jihatdan to'g'ri shakliga o'zgartirib ko'chirish orqali ham o'z savodxonligini yanada rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri yozish ko'nikmasi yuzasidan metodik ta'minotini shakillantirish orqali ularning orfografik qoidalarni amaliy mashq va topshiriqlar orqali tezroq hamda puxtaroq o'rganishini, o'z fikrini yozma ravishda to'g'ri va tushunarli tarzda ifoda eta olishini ta'minlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Movjidova M. Og'zaki va yozma nutqdagi xatolar. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2015-y. 7-son. 85 b.
2. Murodova N.Q. O'quvchilar nutqida mahaliy shevalar ta'sirida vujudga keladigan talaffuz va imlo xatolari va ularni tuzatish usullari. Dissertatsiya . Toshkent. – 1993.
3. Qosimova K. , Matchonov S. v.b. Ona tili o'qitish metodikasi. "Noshir", Toshkent. – 2009. 351 b.
4. Yaxshiboyev G'. X.. Boshlang'ich sinflarda orfografiyani axborot texnologiyalari yordamida adaptiv o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya."Fan". Toshkent. -2012. 107 b.
5. Yunusov Qobiljon Abzalxonovich. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda orfografik hushyorlikni shakillantirish. Avtoreferat. Toshkent. – 1993. 23 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
7. M Maxmudova, N Qobulova. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Академические исследования в современной науке, 2022 237-240-b
8. G‘ulomov A., Sayfullayeva R., Ernazarova M. v.b. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Muharrir. Toshkent. – 2023. 370 b.

FLIPPED CLASSROOM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA B2 DARAJADAGI FILOLOG TALABALAR YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Amanbayeva Oydin O‘razali qizi
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti
ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola B2 darajadagi filolog talabalarning yozish kompetensiyasini “Flipped classroom” modeli asosida o‘qitishning zamonaviy metodlarini tadqiq etadi. Maqola yozish qobiliyati va uni rivojlantiruvchi metodlar haqidagi nazariyalarni ko‘rib chiqadi. Maqola teskari sinf modelida o‘qitishning talabalar yozish kompetensiyasiga samarli ta‘sirini muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Flipped classroom, hamkorlikda yozish, Blum taksonomiyasi, talabaga mos o‘qitish.

MODERN METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITING COMPETENCE OF PHILOLOGIST STUDENTS AT B2 LEVEL BASED ON FLIPPED CLASSROOM TECHNOLOGY

Annotation: This article explores innovative methods of teaching B2-level students' writing competence based on the Flipped classroom model. It considers theories about writing competence and the methods that develop it. It discusses the effective results of flipped classroom approach to the students' writing skills.

Key words: Flipped classroom, cooperative writing, BLUM taxonomy, differentiated learning.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ УРОВНЯ В2 НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕВЕРНУТОГО КЛАССА

Аннотация: В данной статье исследуются инновационные методы обучения письменной компетенции студентов уровня В2 на основе модели Flipped classroom. Рассматриваются теории о писательской компетенции и методы, которые ее развивают. Обсуждаются эффективные результаты подхода «перевернутый класс» к навыкам письма учащихся.